XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 6-yanvar VII-24-1-4-67-K/26 Shahrisabz tumani

Shahrisabz tuman boʻyicha 2026-yilda qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer soligʻi stavkalarini belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, Qashqadaryo viloyati hokimining “Qashqadaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer soligʻi stavkalarini belgilash haqida”gi qaror loyihasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahrisabz tumanidagi mahallalarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soligʻi bazaviy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yer soligʻining amaldagi stavkalari 1-0,7 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin.

3. Shahrisabz tumani bo`yicha 2026-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahrisabz tumani boʻyicha 2026-yilda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan Shahrisabz tuman boʻyicha Soliq kodeksida belgilangan yer soligʻi stavkalarida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun, ularning

hududlarida joylashgan mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsiyentlarni kiritish vakolati inobatga olinsin.

6. Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi “Shahrisabz tuman yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi VII-4-2-4-67-K/25-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning “e-qaror.gov.uz” elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga yetib borishi inobatga olinsin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shahrisabz tuman KengashiningMahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Baratov hamda Shahrisabz tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Karamanov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **XASANOV SAMAD AXATILLAYEVICH**

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-24-1-4-67-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

2026-yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi			Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		
		Viloyat kengashi qarori stavkasi (1 kv. metr uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv. metr uchun, so‘mda)	Viloyat kengashi qarori stavkasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1	“Chorshanbe” MFY	388,31	1,03	399,96	45 792 000	1,03	47 165 760
2	“Istiqbol” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,98	44 876 160
3	“Yangi qishloq” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,98	44 876 160
4	“Shamaton” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,98	44 876 160

5	“Xo‘jaxuroson” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,98	44 876 160
6	“Xontepa” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,98	44 876 160
7	“Miraki” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
8	“Mevazor” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
9	“Qo‘shchinor” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
10	“Maktobod” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
11	“Oqdaryo” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
12	“Nurafshon” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
13	“Obod” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
14	“Oq oltin” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
15	“Qo‘shqanot” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
16	“Navbahor” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
17	“Qutchi” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
18	“Amir Temur” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
19	“Avazmalik” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
20	“Abziyat” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
21	“Qurg‘ontepa” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
22	“Ravot” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
23	“Yangiobod” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
24	“Shiramon” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360

25	“Shanbe” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
26	“Shakarteri” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
27	“Chuqun” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
28	“Polmon” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
29	“Xojimaydon” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
30	“Xazara” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
31	“Uloch” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
32	“To‘damaydon” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
33	“Tepar” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,83	38 007 360
34	“Duxchi” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
35	“Qumqishloq” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
36	“Bog‘ishamol” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
37	“Big‘mi” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
38	“Tanxoz” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
39	“Yangibog‘” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
40	“O‘rtaqo‘rg‘on” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,83	38 007 360
41	“Achchig‘i” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,72	32 970 240
42	“Paxtakor” MFY	388,31	0,83	322,30	45 792 000	0,72	32 970 240
43	“Qiyomshayx” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
44	“Xalqobod” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240

45	“Toshbuloq” MFY	388,31	0,93	361,13	45 792 000	0,72	32 970 240
46	“Ko‘l” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
47	“G‘elon” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
48	“Xitoy” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
49	“Hisor” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
50	“Sarchashma” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
51	“Saroy” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
52	“Sayyod” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240
53	“Hisorak” MFY	388,31	0,74	287,35	45 792 000	0,72	32 970 240

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-24-1-4-67-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koyeffitsiyentlar miqdori

Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub	
	Koeffitsiyent	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koyef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*
Shahrisabz tumani	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-24-1-4-67-K/26 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Tuman va shaharlar nomi	Faoliyat turlari kesimida		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori

1.	Shahrisabz tumani	1,20	1,4	1,2